



VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINI OLDINI OLIISHDA ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING O'RNI VA ULAR TOMONIDAN SODIR ETILAYOTGAN JINOYATLAR UCHUN JAVOGBARLIK MASALALARI

J.G.Tursumatov

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi

Akademiyasi 2-o'quv kursi kursanti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7848006>

ARTICLE INFO

Received: 10th April 2023

Accepted: 19th April 2023

Online: 20th April 2023

KEY WORDS

Voyaga yetmaganlar, deviant xulq, delikvint xulq, deviatsiya, narkomanya, ota-ona, psixokorreksiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada hozirgi kunda avj olib borayotgan voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatchilik va huquqbuzarliklar, ularning psixologik xususiyatlari, ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyat va huquqbuzarliklar uchun javobgarlik masalalari ko'rib chiqiladi.

KIRISH

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning barchasi inson va uning manfaatlari uchun yo'naltirilganligi nafaqat qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, balki amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning asl maqsadi ekanligi barchamizga ma'lum. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev aytganlaridek biz sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz kerak. Loqal jadidchilarimizdan bo'lgan Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan so'zlari biz uchun shior bo'lib qolishi lozim.

Voyaga yetmagan shaxs tarbiyasi hozirgi kunga kelib dolzarb muammoga aylanib bormiqda. Jumladan ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyat va huquqbuzarliklar yildan yilga ko'payib bormoqda. Ushbu masalalar yuzasidan ya'ni, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini barvaqt oldini olish maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol sifatida, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" gi 2010-yil 28-avgustda qabul qilgan O'RQ-263 son qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-5050-son qarori qabul qilindi. Qaror asosida, "Xavfsiz ta'lim muassasasi" tamoyili asosida voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalarini inobatga olgan holda 2.000 ta inspektor-psixolog lavozimi shtat birligi joriy qilindi. Ularning bevosita xizmat o'tash joyi etib umumiy o'rta ta'lim muassasalari belgilandi.

Jamiyat oldida yana ko'ndalang bo'lib turgan masalalardan biri voyaga yetmaganlarning turli xil psixotrop va giyoxvandlik moddalariga mukkasidan ketib ularni istemol qilayotganliklaridir. Voyaga yetmaganlarda ushbu maxsulotlarni istemol qilishga hohishni



ularning ota-onasi tomonidan berilayotgan tarbiya, ularni o'rab turgan atrof muhit katta tasir ko'rsatmay qolmaydi. Bola voyaga yetib borish jarayonida uning atrofida qanday shaxslar yig'ilgan bo'lsa va u shaxslar qanday ishlarni, qanday harakatlarni amalga oshirayotganligini kuzatib turadi va shu ishlarni to'g'ri deb biladi, o'zi voyaga yetganda esa huddi shu ishlarni bajarishga harakat qilib ko'radi. Bu esa asta-sekinlik bilan jamiyatning yemirilib borishiga sababchi bo'ladi.

ASOSIY QISM

"Bola bilan muloqot qilishda san'atdan-da murakkab san'at yo'qdir", deb yozgandi mashhur Polshalik pedyatir va pedagog Yunush Korchak.

O'smirlik davrini inqirozli davrga aylantirib qo'yadigan sabablar juda ko'p (bolaning jinsiy yetilishi, ularda kattalik hissining paydo bo'lishi va rivojlanishi, mustaqillikga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi va boshqalar). Biroq farzandining tilini topa olmayotgan, u bilan psixologik aloqa o'rnatishga qiynalayotgan har bir ota-onani farzandidagi o'zgarishlarning sabablaridan ko'ra shunday vaziyatlarda qanday yo'l tutishi kerakligi, nima qilish mumkinligi ko'proq qiziqtiradi. O'smir yoshda ota-onaning bola ko'z o'ngidagi mavqeyi bir muncha pasayadi. Maktab davrigacha bo'lgan yoshlik vaqtida, kichik maktab yoshida ota-onasini eng kuchli, aqilli va chiroyli deb hisoblaydigan bolalar o'smirlik yoshiga kelib, aslida ularning ota-onalarida ham talay kamchiliklar borligini payqay boshlaydi. Umamn, bu davirda tengdoshlar mavqeyi oshib, kattalarga nisbatan tanqidchan munosabat oshadi va kuchayadi. Ota-ona va o'smir bolalar o'rtasida vujudga keluvchi nizolarga ko'pincha quydagilar sabab bo'ladi:

- ❖ Bolaning do'st va o'rtoq tanlashda adashishi;
- ❖ Turli joylarga va tadbirlarga ko'p borishi va bu yerlarda uzoq qolib ketishi;
- ❖ Kiyinishi va tashqi ko'rinishda antiqa o'zgarishlar qilishi;
- ❖ Uy yumushlari bo'yicha turli topshiriqlarni bajarmasligi;
- ❖ Aka-uka va opa-singillar bilan tortishishi;
- ❖ Ota-ona va katta yoshdagi shaxslarga nisbatan hurmatsizlikni ochiq namoyon etishi;

Ota-ona bola ulg'ayib borgani sayin oilaviy muhokamada uning ovozi ham asta-sekin ko'p narsalarni hal etadigan darajaga yetishi uchun sharoyit yaratishi kerak. Turli muammolarni muhokama qilishda, bahislarda ota-ona o'zining nohaqligini tan olishdan qo'rqmasligi lozim. Bu to'g'risida Oila kodeksining 67-moddasida (" bola o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega ") belgilab qo'yilgan. Agarda qonun xujjatlarida belgilab qo'yilgan bola huquqlari taminlanmasa yoki himoya qilinmasa voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilik oshib keskin muammolar ko'payishi mumkin.

Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning statistikasi

Jumladan bunga misol sifatida 2019-2021 yillar oralig'ida jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning o'rtacha 21% ni maktab o'quvchilari, 43% ni litsey va kollej o'quvchilari, 24% ni ishlaydiganlar, qolgan 12% ni esa ishlaydigan va o'qiydigan oliy ta'lim muasasasi talabalari tashkil qilgan.

2022 -yilning yanvar-iyun oylarida huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlar soni 1356 nafarni tashkil etib, ularning umumiy sonining 3,4 % ini tashkil etdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki viloyatlar bo'yicha voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatlar 6,9 % ini (93 nafar) ayollar tashkil etishini ko'rsatdi.



Voyaga yetmagan shaxslarning shaxsiy xislatlarini bilish profilaktik chora-tadbirlarni to'g'ri tanlash va qo'llashda katta ahamiyat kasb etadi. Ularning shaxsiy tayanch xislatlariga quydagilar kiradi:

- Shaxsiyatparastlik (egoizim)
- O'zini himoya qilish;
- Erkinlikka intilish;
- Qiziquvchanlik (tanishish va o'rganishga moyillik);
- Moslashuvchanlik;

Zero, voyaga yetmaganlarning jinoyat yo'liga kirishga uning shaxsiga xos bo'lgan salbiy yoki ijobiy xislatlari aloxida o'rin tutadi. Shuni aloxida takidlash joizki voyaga yetmaganlarda jinoyat sodir etishga undagi turli xil kamchiliklar, atrofdagi tengdoshlardan bir pog'ona pastda yurishi kabi salbiy xolatlar moyillikni keltirib chiqaradi. Misol sifatida keltirishimiz mumkinki voyaga yetmagan qizlar va bolalar orasida ko'p sodir bo'luvchi salbiy xolatlardan biri bu jinsiy jinoyatlar sanaladi. Bunga sabab esa 10-13 yoshdagi qizlarga ota-onasi tomonida kam e'tibor qaratilishi va undagi yo'qchiliklarni to'ldirmasligi hisoblanadi.

Voyaga yetmagan shaxs jamiyatda normal hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan ishonch, axloqning ijtimoiy ma'qul shakillariga ega bo'ladi. Pedagogik qarovsizliklarda, o'qishdagi qolioqlik, darslarni qoldirish, o'qituvchilar va sinfdoshlar bilan ziddiyatlarga qaramay, subyektlarda qimmatli-me'yoriy tasavvurlarning keskin defarmatsiyalashuvikuzatilmaydi. Bu holda, shaxs uchun mehnatning qadri yetarli darajada balan bo'lib qoladi, u kasb tanlash va uni egallashga yo'naltirilgan bo'ladi, uning uchun atrofdagilarning fikrlari farqsiz bo'lmaydi, ijtimoiy va referend munosabatlar o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Ijtimoiy qarovsizlikda asatsial axloq bilan bir qatorda qimmatli me'yoriy tasavvurlar, qimmatli yo'nalishlar, ijtimoiy hukumron g'oyalar tizimi keskin deformatsiyalanadi, mehnatga salbiy munosabat, tirikchilik uchun shubxali va noqonuniy vositalar hisobiga mehnatsiz daromadlar toppish va "chiroyli hayotga erishish" maqsadi hamda unga intilish istagi shakillanadi. Bunday shaxslarning referend munosabati va qimmatli yo'nalishlari pazitiv yo'nalishli ijtimoiy aloqlar va ijtimoiy institutning shaxslardan anchagina begonalashishi bilan tavsiflanadi.

Jinoyatchilik olamiga kirgan voyaga yetmagan shaxsni diagnostika qilish uchun psixologlar tomonidan "qarshi xarakat deb nomlanuvchi me'zonlar ishlab chiqilgan. Ular



ijtimoiy, o'quv yoki shaxslararo soxadagi buzulishlar bilan bog'liq eksternal devyatsiyani (nafarat, dushmanlik, tajovuz, o'g'irlik) o'z ichiga oladi. O'smirlardagi jinoyat sodir etishga moyillik quydagilarda namoyon bo'ladi:

- His-hayajonli portlashlar;
- Kattalar bilan janjallar;
- Kattalarning qoidalari yoki iltimoslarini mensimaslik yoki bajarishni rad etish;
- Boshqa odamlarni jo'rttaga bezor qilish;
- O'z xatolariga boshqa birovni ayiblash;
- Jizzakilikning eng keskin darajasi;
- Badjahillik, darg'azablik, qasoskorlik, kek saqlash;
- Haqoratlar va uyatsiz so'zlarni ko'p ishlatish.

Yuqorida keltirilgan holatlar devyian hulq-atvorga ega bo'lgan o'smirlarning muomola belgisi sifatida qaralishi ham mumkin.

Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir erilgan jinoyatlar uchun javobgarlik masalasiga to'xtaladigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda "ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda 16 yoshga to'lgan shaxslar, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ma'muriy javobgarlikka tortiladi" deb ma'muriy huquqbuzarlik subyekti ta'rifi keltirilgan. Shuningdek, ushbu kodeksda ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarning huquqlari va burchlari (294-modda) belgilab berilgan.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi bo'yicha sud amaliyotiga to'xtaladigan bo'lsak voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni ko'rishda sudlar asosan qonunlarni to'g'ri tadbiiq etilishini ta'minlamoqdalar. Shu bilan birga, sudlar tomonidan ba'zan shu toifadagi ishlarni ko'rishda jinoyat va jinoya-pratsessual qonun normalariga har doim ham rioya etmayaptilar. Voyag yetmaganlarning jinoyat sodir etilishiga imkon bergan sabab va shar-shaoyitlarni lozim darajada aniqlash va ularni bartaraf qilish choralari ko'rilmayapti.

Jinoyat kodeksining 87-moddasida ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lganda voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralari qo'llagan holda ularni javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish masalasiga yetarli e'tibor qaratilmayapti.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni sinchkovlik bilan, har tomonlama to'la va xolisona tekshirib chiqib, qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini va sudlanuvchining shaxsini e'tiborga olgan holda aniqlanga haqiqiy xolatlar va dalillar majmuasiga to'g'ri baxo berilib, odillik va insonparvarlik tamoyillariga amal qilgan holda qonunda ko'rsatilgan xususiyat va imtiyozlardan to'la foydalanishga qaratilishi lozim.

¹Ijtimoiy xavfi kata bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan voyaga yetmagan nshaxs agar, sodir etilgan qilmishning xususiyati, ayibdorning shaxsi va ishning boshqa hollarini e'tiborga olib sud uni jazo qo'llamasdan turib xam tuzatish mumkin degan xulosaga kelsa, ishni ko'rish uchun tayinlash bosqichida ishni tugatish va uni voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi kamissiyada ko'rishga yuborish xaqida ajirim chiqaradi.

XULOSA

¹ Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'riisda --- 255-b.



Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning vujudga kelishiga imkon berayotgan sabab vas hart-sharoyitlar yoki asosiy omillardan biri shaxsning ijtimoiy ruxiy xolati bilan bog'liq bo'lb, xam obyektiv, xam subyektiv xususiyatga ega. Uning obyektiv tomoni bu yoshdagi shaxslarning organizmida bo'lib o'tayotgan psixalagik jarayonlar tashkil qiladi. subyektiv jixati esa muayyan shaxsning shakillanishiga xos xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Obyektiv va subyektiv omillar voyaga yetmaganlarning ijtimoiy va huquqiy ongiga, xulq-atvoriga, o'zga shaxsga bo'lgan munosabatiga va boshqa shaxslarga ta'sir ko'rsatadi. Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning yana bir sababi yoki omili sifatida ularning oilaviy axvoli, tarbiyalanish sharoyitlarini ko'rishimiz mumkin, chunki ota-onaning bola hayotida tutgan o'rni juda ham katta hisoblanadi. U balog'at yoshiga yetgunga qadar o'z atrofidagi insonlarning xatti-xarakatlarini kuzatadi va shu ishlarni to'g'ri deb xisoblab ko'rgan-bilganlarni amalga oshirishga harakat qiladi. shu no'rinda aytish joizki, voyaga yetmagan shaxslar huquqbuzarligini 4 tipga bo'lib o'rganishimiz mumkin:

➔ Birinchi huquqbuzarlik tipiga ilk bor jinoyat sodir etgan o'spirinlar mansubdir. Ularning avvalgi hatti-xarakatlari va ma'naviy qiyofasi yetarli ravishda ijobiy baxolanadi. Odatda bunday voyaga yetmaganlar uncha katta ahamyatga ega bo'lmagan huquqbuzarlik sodir etadilar;

➔ Ikkinchi tipga ilk bor jinoyat sodir etganlar kiradi. Ammo ularning jinoyatdan avvalgi xatti xarakatlari va manaviy qiyofasi unchalik odobga to'g'ri kelmagan bo'ladi. Ular spirtli ichimliklar, narkotik moddalar xamda tamaki maxsulotlarni istemol qilish, uydan ketib qolish, va shu kabi xarakatlarni sodir etish odatlariga ega bo'lganlar.

➔ Uchinchi tipga ma'naviy jixatdan buzilgan voyaga yetmaganlar kiradi. Ular avval xar-xil huquqbuzarlik sodir etganlar, ma'muriy javobgarlikka tortilganlar, maxsius maktablar va yopiq turdagi kasb-xunar bilim yurtlariga yuborilganlar.

➔ To'rtinchi tipga ma'naviy jixatdan buzilgan voyaga yetmaganlar kiradi. Bu tipga jamiyat uchun nixoyatda katta xavf tug'diruvchi voyaga yetmagan shaxslar kiradi. Ularning xatti-xarakatlari mustaxkam g'ayri ijtimoiy xususiyatga ega.

Voyaga yetmagan shaxslarda jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etishga maqsad tegishli vaziyat ta'sirida vujudga keladi. Ular jinoyat sodir etish vaqtida boshqa jinoyatchilarning ta'siri ostida bo'ladi.

Voyaga yetmaganlarning jinoyatlarini oldini olish yoki ularni bartaraf qilish uchun: yashash, o'qish yoki ish joyidagi muxitning salbiy ta'siri, o'qoshni tashlab ketgan o'smirlar uzoq vaqt muayyan ish bilan shug'ullanmaslik, o'smirning noto'g'ri tarbiyalanishini belgilovchi shart-sharoyitlar omillari, Yoshi kattalarning jinoyatga dalolat qilishi, zo'ravonlik yoki qonunga rioya qilmaslikni targ'ib qiluvchi kitoblar va filmlar namoyishi yoki shu kabi boshqa xolatlarni nazorat qilish lozim.

Shu kabi jinoyatchilikni oldini olish uchun yoshlar va voyaga yetmagan shaxslarning huquqiy ongi va huquqiy madanyatini oshirish lozim. Chunki ularda huquqiy ongning shakillanmaganligi natijasida jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etishga ishtiyoq paydo bo'ladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.



2. Kriminalogya. Maxsus qism. (I.Ismailov, Q.R.Abdurasulov.)
3. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminalagik tavsifi va oldini olish. (B.A.Umirzoqov.)
4. Deviant xul-atvor psixologiyasi. (I.M. Hakimova)
5. B.R.Kadirov “Способности и склонности” .
6. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun.
7. Voyaga yetmaganlarning g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb etishning profilaktikasini tashkil etish. (Sh.R.G‘ofurov)